

**"Yangi yil oldi ishlar nazorat ro'yxati"  
aksiyasi qoidalari**

1. Mazkur qoidalalar "Yangi yil oldi ishlar nazorat ro'yxati" Aksiyasini o'tkazish tartibi va shartlarini belgilaydi (bundan buyon matnda - "Aksiya" deb yuritiladi).
2. Aksiya g'oliblari mazkur Qoidalarda bayon qilingan mezonlarga muvofiq aniqlanadi.
3. Aksiya tashkilotchisi - "ROI GROUP" mas'uliyati cheklangan jamiyati (ROI Grupp) (BIR (Bank identifikatsiya raqami) - 151240005397) (keyingi o'rnlarda matnda - "Tashkilotchi" deb yuritiladi), Qozog'iston Respublikasi, Olmaota shahri, Dostik prospekti, 132-uy, 5-ofis manzilida joylashgan.
4. Aksiyaning pudratchisi Limited liability company "CSA GRAPE / TOV "AKR GRAPE hisoblanadi, (BIR (Bank identifikatsiya raqami) - 43494653) (keyingi o'rnlarda matnda - "Pudratchi" deb yuritiladi), Ukraina, 04071, Kiyev shahri, Verxniy Val ko'chasi, A-korpus, 2-ofis manzilida joylashgan.
5. Aksiya hamkorı Visa International Service Association (Viza Interneyshnl Servis Assosieyshn) (keyingi o'rnlarda matnda - "Visa" deb yuritiladi) hisoblanadi.
6. Aksiya qimor va/yoki lotereya hisoblanmaydi.
7. Aksiyada ishtirok etish uchun to'lov olinmaydi.
8. Aksiyada, mazkur Qoidalarning barcha talablari shartlarini (keyingi o'rnlarda matnda - "Aksiya Ishtirokchisi" deb yuritiladi) lozim darajada bajargan, 18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan jismoniy shaxslar, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega norezidentlar ishtirok etishi mumkin.
9. Aksiyada quyidagilar ishtirok eta olmaydi va hozirda ishtirok etmayapti: Aksiya Tashkilotchisi yoki Aksiya Hamkorı bilan har qanday asosda va har qanday shaklda afillangan shaxslar, shu jumladan xodimlar, ularning yaqin qarindoshlari (turmush o'rtog'i, ota-onalari (ota-onasi), qizi, o'g'li, farzand sifatida asrab oluvchilar (asrab oluvchilar), asrab olinganlar (asrab olinganlar), tug'ishgan va o'gay aka-ukalar, opa-singillar, buvi, bobo, nabiralar), O'zbekiston Respublikasi norezidentlari va mazkur Qoidalarning 8-moddasida ko'rsatilmagan boshqa shaxslar.

10. Aksiya mukofot jamg'armasi:

Nº	Sovrin nomi	Sovrinlarning umumiyligi	G'oliblar soni
1	Fujifilm Instax mini 12 White fotoapparati va 10 ta polaroid surat uchun kartrij	10	Asosiyalar - 10 ta Zaxira - 10 ta

11. Aksiya o'tkazilishi davri: Toshkent vaqt bilan 2023 – yil 20-dekabr soat 12:00 dan 2023-yil 26-dekabr soat 23:59 gacha (keyingi o'rnlarda matnda "Aksiya davri" deb yuritiladi).

12. Aksiyada ishtirok etish shartlari:

- 12.1. Instagramda <https://www.instagram.com/visa.uz?igshid=OGQ5ZDc2ODk2ZA==> manzilida joylashgan Visa Uzbekistan (@visa.uz) sahifasiga oldindan obunachi bo'lish yoki yangitdan obuna bo'lish;
- 12.2. Instagramda @visa.uz sahifasida Aksiya postiga layk bosish;
- 12.3. o'zingizning Instagram sahifangizda yangi yil bayramlari oldidan nazorat ro'yxati (reja) bo'lgan "Story"ni joylashtiring, nazorat ro'yxatini birga amalga oshirmoqchi bo'lgan bitta do'stingizning Instagram akkauntini belgilang, shuningdek [@visa.uz akkauntini belgilang](#)
- 12.4. bitta Ishtirokchi faqat bitta Sovrin olish huquqiga ega. Bir shaxs tomonidan turli xil akkauntlardan ishtirok etishga yo'l qo'yilmaydi;
- 12.5. Aksiyaning butun davri uchun Ishtirokchining Instagram sahifasi ochiq, haqiqiy bo'lishi kerak (ya'nii ma'lum bir jismoniy shaxsga tegishli bo'lishi) va tijoriy bo'lmasligi kerak;
- 12.6. Aksiyada botlar, shuningdek Instagram va/yoki Internetda o'tkaziladigan tanlovlardan, aksiyalar, lotereyalar va boshqa piar reklama kampaniyalarida ishtirok etish uchun maxsus yaratilgan sahfalar ishtirok etmaydi.

13. Aksiya G'oliblarini (asosiy va zaxira) aniqlash Toshkent vaqt bilan 2023-yil 28-dekabr soat 16:00 da <https://www.random.org> veb-saytida tasodifiy kompyuterda tanlash usuli orqali, mazkur Qoidalarning shartlarini to'liq bajargan Aksiya Ishtirokchilari orasidan (Ishtirokchilarning Instagram sahfalari nomlariga muvofiq) amalga oshiriladi.

14. O‘yin translyatsiyasi Instagramda @visa.uz sahifasida jonli efirda o‘tkaziladi.
15. Pudratchi G‘oliblarni, mazkur Qoidalarning 13-moddasiga muvofiq, G‘oliblar aniqlangan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida, Ishtirokchi sahifasining Instagram Directga xabar yuborish orqali, xabardor qiladi.
16. Agar G‘olib Pudratchining xabariga 3 (uch) ish kuni ichida javob bermasa yoki Sovrinni olishni rad etsa, Pudratchi birinchi zaxiradagi g‘olibga murojaat qiladi, agar birinchi zaxiradagi g‘olib bilan aloqa o‘rnatishning imkonи bo‘lmasa, ikkinchi zaxiradagi g‘olib bilan aloqa o‘rnatadi va hokazo.
17. G‘olib Pudratchining so‘roviga binoan quyidagi ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini oladi: FIO, haqiqiy yashash manzili pochta indeksi bilan, aloqa uchun telefon, elektron pochta manzili.
  - 17.1. G‘olib bilan aloqa qilish Pudratchining vakolatli vakili tomonidan @visa.uz sahifasidan yoki elektron pochta: s.zhumali@roi.kz, orqali amalga oshiriladi;
  - 17.2. Pudratchi mazkur moddaning 17.1-bandida ko‘rsatilmagan boshqa aloqa ma'lumotlari orqali G‘olib bilan aloqani amalga oshirmaydi;
  - 17.3. Pudratchi, Tashkilotchi, Hamkor hech qachon elektron pochta xabarlarini, SMS-xabarlarini yubormaydi va sizning bank hisob raqamlaringiz, bank kartalari raqamlari/fotosuratlarini, Internet-banking foydalanuvchi ismi/paroli, SMSdagi bir martalik kodlar, PIN-kodlar, shaxsiy kabinetlar, ijtimoiy tarmoqlar va bosqalardagi akkauntlarning parollari kabi maxfiy ma'lumotlarni so‘rab qo‘ng‘iroq qilmaydi.
18. Sovrinni topshirish Tashkilotchi tomonidan mazkur Qoidalarning 17-moddasida ko‘rsatilgan ma'lumotlar olingan kundan boshlab 30 (o‘ttiz) kalendar kun ichida G‘olibning pochta manziliga (G‘olib tomonidan taqdim etilgan) yuborish orqali amalga oshiriladi. Sovrinni olish paytida, G‘olib shaxsni tasdiqlash guvohnomasining nusxasini taqdim etishi, qabul qilish va topshirish Dalolatnomasini imzolashi va Sovrin bilan suratga tushishi kerak.
19. Pudratchi, Tashkilotchi va Hamkor, G‘olib tomonidan, Pudratchi, Tashkilotchi va Hamkorga bog‘liq bo‘limgan har qanday sababga ko‘ra sovrinni ololmasligi uchun javobgar bo‘lmaydilar.
20. Pudratchi, Tashkilotchi va Hamkor G‘olib tomonidan qabul qilingan mukofotdan keyingi foydalanish uchun javobgar bo‘lmaydi. Aksiya o‘tkazilish doirasida tarqatiladigan reklama materiallarida ko‘rsatilgan (ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan) Sovrirlarning tashqi ko‘rinishi/shakli/tasviri va ulardan foydalanish taassurotlari haqiqiylardan farq qilishi va Ishtirokchilar kutganiga to‘liq javob bermasligi mumkin.
21. Agar Sovrin, mazkur Qoidalarning 19-moddasida ko‘rsatilgan sababga ko‘ra olinmasa, G‘olib tomonidan qayta talab qilinishi mumkin emas. Bunday Sovrinlarni olmaganlik to‘g‘risidagi da‘volar ko‘rib chiqilmaydi.
22. G‘oliblar tomonidan olingan Sovrinlar almashtirilmaydi va qaytarilmaydi. Sovrinlar pul ekvivalentida berilmaydi.
23. Aksiya haqidagi ma'lumotlar, Aksiyadagi muhim o‘zgarishlar, Aksiya G‘oliblari va boshqa ma'lumotlar instagramda @visa.uz sahifasida joylashtiriladi.
24. Pudratchi, Tashkilotchi istalgan vaqtida Aksiyani o‘tkazish shartlari va muddatini, mukofot fondini o‘zgartirish va/yoki to‘ldirish, shuningdek, o‘z ixtiyoriga ko‘ra, Aksiya Ishtirokchilarini va barcha manfaatdor shaxslarni, mazkur Qoidalalar bilan belgilangan tarzda, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq xabardor qilib, Aksiyaning o‘tkazilishini to‘xtatish, to‘xtatib turish, qisman yoki to‘la bekor qilish huquqini o‘zida saqlab qoladi.
25. Pudratchi, Tashkilotchi va Hamkor Aksiya Ishtirokchisi xatolarining oqibatlari, shu jumladan shu sabab bilan yetkazilgan xarajatlar uchun javobgar emas.
26. Aksiyada ishtirok etish orqali Ishtirokchi, shubhasiz, so‘zsiz va qaytarib bo‘lmaydigan tartibda Pudratchiga, Tashkilotchiga va Hamkorga, Ishtirokchining FIONi, shaxsiy ma'lumotlarini, uning Aksiyada ishtiroki bilan bog‘liq u haqidagi intervyuni yoki boshqa materiallarni, shu jumladan Aksiya Ishtirokchisining fotosuratlari va videosuratidan, shuningdek, Aksiya to‘g‘risidagi reklama ma'lumotlarini tarqatish vaqtida Aksiya Ishtirokchisi bilan yaratilgan fotosuratlar va videoroliklardan

foydalananish uchun cheklanmagan muddatga va hududiy cheklovlarisiz hamda bunday foydalananish uchun hech qanday haq to‘lamasdan, foydalananish huquqini beradi.

27. Ishtirokchi, Sovrinni qabul qilishga rozilik bildirib, shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etib, Pudratchi, Tashkilotchi va Hamkoriga taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni, Aksiyani o'tkazish maqsadlari uchun uning o'tkazilishining butun davri va u tugaganidan keyin 3 (uch) yil davomida, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagagi ZRU-547O-son Shaxsiy ma'lumotlar to‘g‘risidagi Qonunida (keyingi o'rnlarda matnda - "Qonun" deb yuritiladi) nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq qayta ishlashga, shu jumladan to‘plash, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o‘zgartirish), chiqarib olish, foydalananish, tarqatish, qiyofasini o‘zgartirish, blokirovka qilish, o‘chirish, yo‘q qilish, transchegaraviy o’tkazishga o‘z roziligin tasdiqlaydi. Ko‘rsatilgan rozilik Ishtirokchi tomonidan istalgan vaqtida Tashkilotchining manziliga yetkazib berish to‘g‘risida xabarnoma bilan, tegishli ro‘yxatdan o’tkazilgan xatni yuborish orqali chaqirib olinishi (bekor qilinishi) mumkin: "ROI GROUP" MChJ (ROI Group), Qozog‘iston Respublikasi, Olmaota shahri, Dostik pr., 132-uy, 5-ofis.
28. Aksiyada ishtirok etish fakti - bu Aksiyani o’tkazish maqsadlari uchun zarur bo‘lgan har qanday usulda va mazkur Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda, Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini Pudratchi, Tashkilotchi va Hamkor tomonidan qayta ishlashiga Ishtirokchining roziligin erkin, aniq, xabardor va ongli ravishda ifoda etishidir.
29. Ushbu Qoidalarning maqsadlari uchun shaxsiy ma'lumotlar deyilganda to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita aniqlangan yoki aniqlanuvchi jismoniy shaxsga (shaxsiy ma'lumotlar subyektiga) tegishli bo‘lgan har qanday ma'lumotlar tushuniladi.
30. Aksiya Ishtirokchisi Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq o‘z huquqlarini (shu jumladan Sovrin olish huquqlarini) uchinchi shaxslarga o’tkazishga haqli emas.
31. Aksiyada ishtirok etish fakti, Aksiya Ishtirokchisining mazkur Qoidalalar bilan tanishganligi va rozi ekanligini anglatadi. Qoidalarga rozilik bildirish to‘liq va so‘zsiz hisoblanadi.
32. Aksianing barcha natijalari, shuningdek Pudratchi, Tashkilotchi va Aksiya Hamkorining qarorlari yakuniy hisoblanadi va ustidan shikoyat qilinmaydi.
33. Qozog‘iston Respublikasi soliq qonunchiligiga muvofiq, ya‘ni Qozog‘iston Respublikasi "Byudjetga to‘lanadigan soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlari to‘g‘risida" Kodeksining 644-, 655-moddalariga muvofiq, Sovrinlar, to‘lov manbasiga solinadigan daromadlarga kiradi. ShDS (Shaxsiy daromad solig‘i)ni hisoblash va ushlab qolish ushbu turdagi daromad (yutuq) turi bo‘yicha, G‘olibga Sovrinni to‘g‘ridan-to‘g‘ri berishni ta‘minlaydigan, soliq agenti - Tashkilotchi tomonidan amalga oshiriladi.
34. Pudratchi, Tashkilotchi va Hamkor, Aksiya ishtirokchilar bilan yozma muzokaralar yohud boshqa aloqalarga kirishmaslik huquqini o‘zida saqlab qoladi, ushbu Qoidalarda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidida va nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.
35. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan holatlarda yakuniy qaror Pudratchi va/yoki Tashkilotchi tomonidan qabul qilinadi.
36. Aksiyada ishtirok etish, o‘yinlar o’tkazish, Sovrirlarni topshirish va hokazolar bilan bog‘liq har qanday savollar yuzaga kelganda, Aksiya Ishtirokchisi Pudratchiga s.zhumali@roi.kz elektron pochta manziliga xat yozib, murojaat qilishi mumkin, Javob xati Pudratchi tomonidan Aksiya Ishtirokchisidan murojaat xati olingan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yuboriladi.
37. Ushbu Qoidalalar Aksianing rasmiy hujjati hisoblanadi.